



ISSN: 3060-4613



13.00.00
13.00.01
13.00.02
13.00.03
13.00.04
13.00.05

13.00.06
13.00.07
13.00.08
13.00.09
07.00.00
19.00.00

01.00.00
02.00.00
03.00.00
09.00.00
10.00.00
11.00.00

№6/2025

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 160 sahifa,
5-iyun, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjijev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Iqim o'zgarishi muammolari va "yashil ko'nikmalar"ning rivojlanishi.....	14
<i>Abdurashit Karimovich Avliyaqulov</i>	
TTJlardagi qizlarni qo'llab-quvvatlash, mavjud ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal etish bo'yicha ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish.....	18
<i>Xasanboy U. Abdusamatov</i>	
Integrativ yondashuv bo'lajak o'qituvchilarda ijodiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy omili	26
<i>Jalilov Nodirjon Azamatovich</i>	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning sibling munosabatlari diagnostikasi.....	30
<i>G'ayibova Nargiza Anorbayevna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillari	33
<i>Hakimova Gulmira To'xtatosheva</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni muzey pedagogikasi vositasida rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlarini	37
<i>Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi</i>	
Iqtisodiy savodxonlikni oshirishda o'zbek tilining ta'siri	41
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodova</i>	
Сторителлинг как инструмент формирования ценностных ориентаций старшеклассников	44
<i>Умрихина Виктория Игоревна</i>	
Формирование эстетических предпочтений учащихся музыкальных школ в условиях инклюзивного образования на основе стилевого подхода	52
<i>Ахунова Умида Ойбековна</i>	
Sun'iy intellektning ta'limga integratsiyasi: o'qitish va boshqaruvdagi o'rni	55
<i>Abduxamidova Muyassar Xalimjon qizi</i>	
Buxorodagi jadidchilik harakatining o'ziga xosligi va maktablardagi ta'lim tizimi.....	60
<i>Axrorov Ixtiyor Doniyorovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning moslashuvida oila va maktabning roli	63
<i>Dadaboyev Jahongir Sherdil o'g'li</i>	
Влияние длительной госпитализации на образовательную траекторию ребенка: междисциплинарный подход	67
<i>Сайфутдинова Насиба Нурматовна</i>	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi.....	75
<i>Otasheva Lola Shoto'rayevna</i>	
Psixologik tadqiqotning umummetodologik va xususiy metodologik tamoyillari	78
<i>Xodjimatoeva Nazira Toshmatovna, Mallayeva Gulshoda Maxmudjonovna</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bo'lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda inklyuziv ta'limning o'rni	81
<i>B. Xusniddinova</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida loyihaviy tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish	85
<i>Zulaykho Samatovna Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini dars jarayonida rivojlantirish texnologiyasi	89
<i>Xudaybergenova Nawrizbiyke Qanat qizi</i>	
Sonlarni obrazlar bilan bog'lash orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	92
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna</i>	
Methodology of Teaching English to Preschool Children	96
<i>Khurshida Tojimurodova</i>	
Malaka oshirish jarayonida yo'riqchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning ijtimoiy zaruriyati..	100
<i>Ch. B. Nalibayeva</i>	
O'qituvchilarning o'qituvchilar bilan hamkorlik munosabatlari	103
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Falsafada haqiqatni izlash: empirizm va rasionallizmning o'rni.....	106
<i>Boymirzayeva Xurshida Sobirovna</i>	



Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun axborot bilan ishlashni o'rgatishning didaktik asoslari	110
Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li	
An Evaluation of the Impact of The Theme-Based Approach on Young Learners' Speaking Development..	113
Khamraeva Gulchekhra Ibrakhimovna	
O'smirlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar	118
Majidov Jasur Baxtiyarovich, Xolmatova Dilorom Vahobjon qizi	
Informatika fanini o'qitishda mobil dasturiy vositalaridan foydalanish imkoniyatlari	123
Jo'rayev Ilhom Isxoqovich	
Muqimiy asarlari vositasida talabalarda kitobxonlik tizimini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish	126
Muxlisa Satriddinova Muhitdinova	
Korpus lingvistikasida lingvostatistik tahlil metodi	132
Nuriddinov Abrorbek Sayfiddin o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarni ruhlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	136
Umarova Feruzabonu Bobir qizi, Samandarova Dildora Javlon qizi	
Tizimli-faoliyatli yondashuv asosida umumpedagogik akt kompetentlikni shakllantirish muammosining nazariy-metodologik jihatlarini	139
Saloxiddinova Umidaxon Mansurjon qizi	
Nutqiy kamchiliklarni kamaytirishda o'yinlarning o'rni	143
Jabborova Oltinoy	
Matn bilan ishlash bosqichlari va ularning ingliz tilini o'rgatishdagi didaktik ahamiyati	146
Soliyev Umidjon Yulchivoyevich	
Ta'lim tizimini boshqarishda talabalar boshqaruvining qiyosiy tahlillari	150
Uzaqov Nomozi Hamdamovich	
Zamonaviy ta'lim muassasalarida pedagoglarning boshqaruv malakasini rivojlantirish yo'llari	153
Z. M. Zarifova	



MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA YO'RIQCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI

UDK:30.(428.303)

Ch.B. Nalibayeva

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va
texnologiyalar universiteti, katta o'qituvchisi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-4376-9326>

Annotatsiya: Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida yo'riqchilarning kasbiy kompetentligini pedagogik faoliyat jarayonida shakllantirishning pedagogik asoslari masalalariga e'tibor qaratilgan. Ta'lim jarayonida ko'zlangan natijalarga erishish uchun o'qituvchining kasbiy kompetentlik sifati qay darajada rivojlanganligi asosida yo'riqchilarni tayyorlash sifati oshirish zarurligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy madaniyat, kompetentlik, kasbiy kompetensiya, hamkorlik, xulq-atvor, bilim, ko'nikma, malaka, anglash, bag'rikenglik, ijtimoiy safarbarlik, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash, tahlil qilish.

Abstract: The article examines the pedagogical foundations for the formation of professional competence of physical education teachers in the process of pedagogical activity at the stage of professional development. The need to improve the quality of teacher training is emphasized, based on the level of development of the teacher's professional competence in order to achieve the desired outcomes in the educational process.

Key words: physical education, competence, professional competence, cooperation, behavior, knowledge, skills, abilities, understanding, tolerance, social mobilization, creativity, teamwork, analysis.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические основы формирования профессиональной компетентности преподавателей физической культуры в процессе педагогической деятельности на этапе профессионального развития. Подчеркивается необходимость повышения качества подготовки преподавательских кадров, исходя из уровня развития профессиональной компетентности педагога для достижения желаемых результатов в образовательном процессе.

Ключевые слова: физическая культура, компетентность, профессиональная компетентность, сотрудничество, поведение, знания, умения, навыки, понимание, толерантность, социальная мобилизация, творческий подход, совместная работа, анализ.

KIRISH

So'nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarining kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga joriy etilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki, barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi", – deb ta'kidlangan^[1]. Ushbu g'oyaning ilgari surilishi "Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans sari" deb belgilangan ulug' maqsadning ifodasi bo'lib, davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta'limni ustuvor yo'nalish sifatida e'lon qilgani har bir pedagog zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-392-son'li Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish va jismoniy tarbiya fani yo'riqchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning kasbiy va jismoniy mahoratini muntazam oshirib borishni yo'lga qo'yish maqsad qilingan: jismoniy tarbiya fani yo'riqchilari uchun o'quv-metodik qo'llan-

1 <https://www.lex.uz/docs/-7221716>



malarni ishlab chiqish; O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti bilan hamkorlikda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy mahorati va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish; jismoniy tarbiya yo'riqchilari tarkibiga mahoratli sportchilarni jalb etish; jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga malaka toifasi berishning yangi tartibini ishlab chiqish; o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida maktab sport klublari faoliyatini yo'lga qo'yish; jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining bilim darajasi va kasbiy mahoratini aniqlash bo'yicha milliy baholash tizimini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy mahorat – kasbiy kompetentlik mohiyatini ochib beruvchi muhim pedagogik kategoriyalardan biri bo'lib, u pedagogik nuqtayi nazardan shaxsga xos quyidagi sohalarni o'z ichiga oladi. Bu borada tadqiqotchi S.A. Drujilov kasbiy mahoratning to'rt muhim jihatini quyidagicha ajratadi:

1. Motivatsion-ixtiyoriy komponent (motivlar, maqsadlar, ehtiyojlar va qadriyatlar);
2. Funktsional komponent (ma'lum bir faoliyat usullari haqidagi bilimlar);
3. Kommunikativ komponent (fikrlarni to'g'ri ifoda etish, tahlil qilish, ishonitirish, gapirish, muloqotni tashkil qilish va axborotni uzatish qobiliyati);
4. Refleksiv komponent (o'z faoliyati natijalarini boshqarish va baholash qobiliyati).

Demak, professionallik tushunchasiga quyidagi xulosalarni kiritish mumkin: u ma'lum bir kasbiy faoliyat turi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi; umumiy va murakkab vaziyatlarda atrofdagi voqeelikni to'g'ri anglash, shuningdek, kasbiy muammolarni hal etish mahoratini talab etadi.

Rus olimlaridan S.T. Vershlovskiy va Yu.N. Kulyutkin kompetentlikni shaxs tavsifi asosida o'rgangan bo'lsalar, V.Yu. Krichevskiy va A.V. Xutorskiy uni shaxs faoliyatidagi maqsadlarni amalga oshirish ko'rsatkichlari orqali talqin etadilar.

Akademik V.A. Slastenin esa kompetentlikni – shaxsning kommunikativlik, muloqatmandlik, konstruktivlik, tashkilotchilik qobiliyatlari majmui sifatida talqin qilgan. Shuningdek, mavzu doirasida quyidagi olimlarning ilmiy qarashlari ham muhim ahamiyat kasb etadi: K.A. Abulxanova-Slavskaya, B.G. Ananiyev, A.V. Brushlinskiy, A.L. Jhuravlyov, I.A. Zimnyaya, V.S. Merlin, A. Rubinshteyn, V.A. Slastenin va boshqalar tomonidan faoliyatning umumiy predmeti haqidagi g'oyalar ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu muammolarni o'rganish malaka oshirish tizimida yo'riqchilarning kasbiy kompetensiyasini muvaffaqiyatli shakllantirishga yordam beradigan bir qator pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashga imkon berdi: innovatsion va interaktiv ta'lim texnologiyalarini joriy etish, shaxsga yo'naltirilgan faoliyatga asoslangan yondashuvlar, psixologik va o'quv jarayoni sub'yektlarining pedagogik o'zaro aloqasi, muammoli vaziyatlarni yaratish va malaka oshirish tizimida yo'riqchilarning jamoada yoki juftlikda reproduktiv va produktiv ishlash qobiliyati. Shuni ta'kidlash kerakki, birgalikdagi tadbirlar, qoida tariqasida, maqsadni belgilash, rejalashtirish, bashorat qilish, aks ettirish va bajarilgan ish natijalarini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Yuqorida keltirilgan pedagogik shartlarning amalga oshirilishiga faqat maxsus ishlab chiqilgan ta'lim texnologiyalari ko'magidagina erishish mumkin.

Ushbu jihatning metodologik asosini pedagogik texnologiyalar nazariyasi hamda mazmun va muolaja jihatlarining didaktik birligi qonuniyatini texnologik amalga oshirish tashkil etadi. Malaka oshirish tizimida yo'riqchilarning kompetensiyasi, bir qator rus va o'zbek olimlarining fikriga ko'ra, o'z taqdirini o'zi belgilash, qaror qabul qilishda mustaqillik, o'quvchilarning kognitiv va tadqiqot faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan murakkab ta'lim jarayonidir. Ta'lim muassasasidagi o'quv jarayoni malaka oshirish tizimida yo'riqchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu esa kasbiy faoliyatda asosiy va maxsus kompetensiyalarni amalga oshirishni anglatadi:

- oldindan rejalashtirish va ishlash natijalarini bashorat qilish qobiliyati;
- yetarli darajadagi ilmiy, nazariy va uslubiy bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligi;
- ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish qobiliyati;
- ta'lim muassasasi o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishni ta'minlash va nazorat qilish qobiliyati;
- o'qituvchining shaxsiy fazilatlar va kasbiy kompetensiyalarini o'z-o'zini takomillashtirish yo'li bilan rivojlantirish olish;
- o'z-o'zini tarbiyalash, ilmiy va uslubiy yangiliklardan xabardor bo'lish;
- pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish va umumlashtirish, kamchiliklarni bartaraf etish qobiliyati.

Malaka oshirish tizimida yo'riqchilarda kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan to'g'ri tashkil etilgan o'quv jarayoni ularning kasbiy mahoratini sezilarli darajada oshiradi. Amaliyot ko'rsatganidek, bu jarayon bosqichma-bosqich va samarali davom etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Malaka oshirish tizimida yo'riqchilarning kompetensiyasi – o'z mutaxassisligi va ixtisosligi doirasida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishi bilan belgilanadi hamda shaxsiy qadriyatlari, sifatlari, kvalifikatsiyasining namoyon bo'lishida ifodalanadi. Quyidagilar ta'lim-tarbiya jarayonida mutaxassisning pedagogik ishga tayyorlanganligining zarur va yetarli darajasini ta'minlaydigan asosiy talablar hisoblanadi:

- pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish, o'z ustida ishlash, ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash, qayta aloqa o'rnatish;
- ta'lim oluvchilarda didaktik motivatsiyani shakllantirish, ularning shaxsiy rivojlanish xususiyatlarini bilish;
- AKT va xorijiy tillarni o'zlashtirish va amaliyotda qo'llay olish;
- umuminsoniy va umummadaniy qadriyatlardan xabardor bo'lish va ularni faoliyatda qo'llay bilish;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; ta'lim muhitiga yangilik kiritish, o'z fanini mukammal bilish;
- muloqotga ochiqlik, bag'rikenglik, empatiyaga moyillik, etakchilik, faollik va tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik;
- o'z faoliyatini tahlil qilish, kompetentlik samaradorligini rejalashtirish, maqsad va vazifalarni belgilash, bashorat qilish, o'zini namoyon etish, kamchiliklarni tuzatish va boshqalar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari rahbarlari, trener-o'qituvchilari, umumiy o'rta ta'lim va maktabgacha ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya o'qituvchilari va mutaxassislarning malakasini oshirish ta'limiga zamonaviy ta'lim metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar, ilg'or xorijiy tajribalarni keng joriy etgan holda, malaka talablari va ishchi dasturlarini muntazam yangilab borilishi lozim. Malaka oshirish jarayonida demokratik va liberal yondashuvlar, tinglovchilarning kasbiy faoliyatidagi kompetensiyalarini takomillashtirish, bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish orqali yuqori samaradorlikka erishiladi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, jismoniy tarbiya yo'riqchilarining kasbiy mahoratini takomillashtirish, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot hamda ta'lim modullari bo'yicha innovatsiyalarni joriy etish, zamonaviy uslublarda bilim, ko'nikma va malakalarni yangilab borish mehnat bozoridagi o'zgarishlar sharoitida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda kasbiy mahorat va ko'nikmalarni takomillashtirishda professional treninglarning ilg'or texnologiyalarini joriy etish, zamonaviy fan yutuqlari asosida texnologik jarayonlarni tanlab, amaliyotda qo'llash, tinglovchilarni passiv iste'molchidan faol ishtirokchiga aylantirishga, ularning kasbiy-metodik faoliyatlariga zamon talablariga mos ijobiy o'zgarishlar kiritishga va moslashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev S.X., Musurmanova R. Pedagogik tajriba-sinov jarayoni samaradorligi // Xalq ta'limi jurnali. – Toshkent, 2008. – №5. – 18–20-b.
2. Abdullayev S.X., Musurmanova R. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari // Maktab va hayot jurnali. – Toshkent, 2008. – №7–8. – 29–30-b.
3. Voronina Ye.V. Nauchnaya organizatsiya pedagogicheskogo truda. Pedagogicheskaya ergonomika: Uchebnoye posobiye dlya akademicheskogo bakalavriata. – Moskva: Yurayt, 2017.
4. Gershunskiy B.S. Filosofiya obrazovaniya. – M.: Flinta, 1998. – 428 s.
5. Golish L.V. Pedagogicheskiye tekhnologii: sodernaniye, proyektirovaniye, realizatsiya. Ekspress-posobiye. – T.: IRSSPO, 2001. – 60 s.
6. Kuindji N.N. Valeologiya: puti i sposoby formirovaniya zdorovya shkolnikov: Metodicheskoye posobiye. – M.: Aspekt Press, 2000. – 139 s.
7. Lebedeva N.T. Shkola i zdorovye uchashixsya. – Minsk: Ushverspenkaye, 1998. – 220 s.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.